

## LUDVIG VAN BETHOVEN 8 PATETIK SONATADA - FORTEPIANO SONATASIGA BIR NAZAR

**Xalilova Xadicha Xalilovna,**  
JDPI “San’atshunoslik” fakulteti  
2-kurs magistranti  
ilmiy rahbar dotsent Omonov X.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada patetik sonatada kompozitorning fojiali, tajribalar dunyosi o’zining haqiqiy kuchi va katta ahamiyatini mujassamlashtirgan. Sonatada teatrallik va o’ziga jalb qiluvchi patetik xitoblar, zulmatli dialoglar juda yorqin va ta’sirli sadolanishi to’risidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** sonata, mavzu, rivojlanish, ekspozitsiya, motiv, bosh partiya, patetik, garmonik.

Fortepiano sonatalari Betxoven uchun o’y va hissiyotlari, uning badiiy intilishlari va izlanishlarini va ichki kechinmalarni bevosita ifodalashda eng qo’l kelgan shakllardan biri. Kompozitorning har bir sonatasi yorqin obrazga va aniq shaklga ega, tugallangan yuksak badiiy asardir. Betxovenning sonata shaklini dramatik tarzda talqin etish uchun hos bo’lgan mavzular, ularni bayon etish va rivojlantirish uslubi, yangi tembr xususiyatlari ilk marotaba fortepiano sonatalarida namoyon bo’ldi. Kompozitorning ilk sonatalarida sonata turkumining uch va to’rt qismli tuzilmalari o’rtasida beqarorlik ham kuzatilgan.

Jahon musiqasi tarixida Betxovenning fortepiano uchun yaratilgan 1-sonatasidan oxirgi sonatasigacha bo’lgan yo’l – butun bir davrni tashkil qiladi. Klavesin ijrochiligi san’ati bilan bog’liq bo’lgan oddiy klassik fortepiano uslubidan boshlagan mazkur kompozitor o’zining so’nggi sonatalarini zamonaviy royal uchun yozgan. O’ziga hos fortepiano uslubini yaratib. O’sha paytgacha ma’lum bo’lmagan chekka registrlarning ifodaviy xususiyatlarini ochib berdi. U quyidagi registrlarga o’tkazib, quyi, o’rta va yuqori registrlarning ohangdorlik ahamiyatini muvozanatga keltirdi. Pedalning turli-tuman tarzda ishlatilishini, fortepianoda sado chuqaruvchi dinamik va turfa rangligini ortirdi.

Lyudvig Van Betxovenning 8-Patetik sonatasi 1799-yili yozilgan bo’lib, Karl Lixnovskiyga bag’ishlangan. Patetik so’zi (yunoncha pathos-pafos) ko’tarinki va yuqori darajadagi kayfiyat degan ma’nolarga ishora qilgan. Ulibishevning so’zlariga ko’ra ushbu asar “Did, kuy va ifoda vositalari borasida, boshidan oxirigacha durdona asardir (shedevr).”

Quyidagi patetik sonatada Betxovenning fojiali, tajribalar dunyosi o'zining haqiqiy kuchi va katta ahamiyatini mujassamlashtirgan. Ushbu sonatada namoyondalik va o'ziga jalb qiluvchi patetik xitoblar, zulmatli musiqaviy suhbatlar juda yorqin va ta'sirli sadolanadi.

Ushbu asarning mavzuiylik tomonlarini ko'rib chiqishimizdan oldin, mavzuiylikga tarif berib o'tamiz. Mavzuiylik bu nazariy musiqashunoslikda eng muhim toifa hisoblanadi. Mavzuning o'zi keng tushunchaga ega bo'lib, u asarning ichki g'oyasini, janr, ta'vsifli obrazlarini namoyon etadi. Musiqiy asarning asosida ya'ni ekspozitsiya qismida turib, keyingi rivojlov va shakllanish jarayonini aniqlab beradi. An'anaviy tarifda "Mavzu - asar rivojlovini asosida yotgan, yetarli darajada xarakterlikga ega bo'lgan, yakunlangan yoki nisbatan yakunlangan musiqaviy fikr" (L.Mazel) deya ta'riflanadi. Lekin ushbu ta'rif zamonaviy amaliyot ehtiyojlariga javob bermay qo'ydi. Yangi ta'rif "Mavzu- bu berilgan asarni reprezentlovchi (namoyon etuvchi) va uning rivojlanish asosida yotuvchi materialdir." (E.A.Ruchevskaya).

Patetik sonataning birinchi qismi (Grave, Allegro di molto e con brio, c-moll) sonata allegro'si shaklida yozilgan bo'lib, bayramona, tantanavor mavzuning akkordli ketma-ketligida ifodalangan ulug'vor, vazmin cho'zimiga ma'nsub muqaddima bilan boshlanadi. Kompozitor ijodida muqaddima mavzusi sonata shakli rivojining eng muhim bo'g'inli vaziyatlarida paydo bo'lib, jiddiy dramaturgik rol o'ynaydi.

Kirish (Grave) o'zi tarkibning og'irlik markazini o'z ichiga oladi - va bu Betxovenning leytmotiv - asar davomida takrorlanadigan asosiy bosh mavzusi syujetini yaratish yo'lidagi ijodiy yangilik omilidir. Berliozning "Fantastik simfoniyasi" dagi iztirob leytmotivi yoki Chaykovskiy simfoniyalaridagi "taqdir" leytmotivi singari, patetik sonataning kirish mavzusi ham birinchi harakatida leytmotiv bo'lib xizmat qiladi.

Muqaddima butunlay bitta boshlang'ich motiv asosida tuzilgan bo'lib, keyinchalik butun sonata orqali o'tkaziladi. Muqaddimada ikki xil ta'riflab beruvchi obrazli element kontrast qo'yilganini eshitishimiz mumkin va keyin keskin ikki kishi dialogi sifatida davom etadi. Quyidagi qismidagi dialog ushbu ikki qarama-qarshi (kontrast) element o'zgarishi asosida qurilgan. Ulardan ikkinchisi (motiv-undov) bora-bora dadilroq yuqori choqiga intiladi. Rivojlanishi monumentaldir, 5-8-taktlarda boy va salmoqli fortepiano fakturalarida-kompozitorning innovatsion uslubdagi yaratilgan namunani ko'rsatadi. Patetik sonataning muqaddimasi kompozitorning tafakkurining boyligi va mantiqiy kuchining durdonasidir. Shu bilan birga, ushbu kirish intonatsiyalari ta'sirchan bo'lib, huddi ular ichida so'zlar yashirilganga o'xshaydi. Kirish qismidan so'ng

tezkor Allegro dadillik va ulkan iroda bilan yangraydi. Bu bilan Betxoven hayajonli nutqni ta'kidlaydi. Dengiz to'lqinlargidek tinimsiz harakat girdobini aka etib, turli xil qarama-qarshi motivlar yangrab, faqat yaxlitlikni kuchaytiradi. Sonataning bosh partiya mavzusi qudrat bilan ko'tarilayotgan to'lqinlarni eslatadi.

Ekspozitsiyaning bosh partiya oddiy ikki qisimli shaklda tuzilgan. Bog'lovchi partiya 16 takt davom etib, harakat hususiyatiga ko'ra yondosh partiya tomon yo'naltirilgan holda yaratilgan. Bosh partiyaning hayajonlanishini asta-sekin tinchlantirib, ohangdor va kuychan yondosh partiya keladi. Vena klassiklari o'rnatgan qoidalar bo'yicha yondosh partiya parallel major Es-Dur tonalligida o'tishi kerak bo'lsada, bu qismda mavzu aksincha nomdosh es-moll tonalligida yangraydi. Yondosh partiya raqs xarakterida berilgan. Ekspozitsiyaning yakuniy qismi Es-Dur tonalligida, bo'ronli intiluvchi passajlar bilan yangraydi. Yakunida bosh partiyaning ohanglari, (ya'ni parchalari) namoyon bo'ladi. Yakuniy qism ekspozitsiya rivojini yakunlab, shaklning eng yuqori avjini o'zida jamlagan.

Ushbu sonataning barcha dramaturgik harakati muqaddimaning ulug'vor mavzusi, bosh partiyaning jo'shqin aks etuvchi fojiiyasi va lirik hayajonli yondosh partiya o'rtasidagi obrazli-mavzu qarama-qarshiliklarga asoslangan. Ziddiyatning bosh manbasi muqaddimaning mavzusida joylashgan bo'lib, u ikki – lirik va dramatik unsurdan tashkil topgan.

Rivojlov kirish qismi bilan boshlangan. Rivojlovda bosh partiyaning shiddatli mavzusi va muqaddimaning lirik unsuri o'rtasida keskin kurash boradi, U jadal su'ratda behalovat yangraydi. Reprizada c-moll bosh tonalligida ekspozitsiyaning barcha mavzulari takrorlanadi. Bog'lovchi partiya mavzusi sezilarli darajada qisqaradi. Birinchi qism tugashi oldidan muqaddima mavzusi yana bir bor paydo bo'ladi. U kuchsiz hissadan boshlanib, notinch va shiddat bilan sadolnadib, bosh partiya mavzusini yana bir bor kodaning yakunlovchi tuzilmasida yanada ildam tempda jaranglaydi. Betxoven tomonidan ilk marta tizimli ishlab chiqilgan yangilik – sonata shakliga rivojlantirilgan kodalarning kiritilishi bo'ldi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan 8-sonataning 1-qismi mavzuiylik nuqtai nazaridan bir emas uch-to'rt mavzuiy birikmalarni hosil etadi. Kirish qismining o'zida melodik mavzuiylikning garmonik boyitilgan turini ajratishimiz kerak. Ilk bora yangragan o'tkinchi aylanma garmonik mavzuiylikga tegishli bo'lib, tinglovchiga tanish bo'lgan (t6-D64-t) garmonik aylanma motivdir. Ekspozitsiyada namoyon bo'lgan bosh partiya, uchtonlarning kengayishda yechilishidan tashkil topgan sekvensiyali harakatni o'z ichiga oladi. Bunda avvaliga yuqorilab borish, keyingi pastlab borishda dissonansli akkord tuzilmalarining konsonanslarga yechilishi bilan mavzuning yaxlitlanishi yuzaga chiqadi. Albatta mavzuiylikning asosida

janrli, musiqali yoki musiqadan tashqari ta'svirli obrazlar yotadi. Aynan klassik musiqaning sonata allegrolarida ana shu toifalar o'z ifodasini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A. Alshvang "Lyudvig van Betxoven: ocherk jizni i tvorchestva" «M» M., 1966.
2. Yu.Kremlyov. Fortepiannie sonati Betxovena. «S. K.» M., 1970
3. E.Ruchyevskaya. Funktsii muzikalnoy temi. «M», L., 1977
4. V.Galatskaya "Muzikalnaya literatura zarubejnix stran" Vipusk 3 M., 1974.
5. N.Goryuxina "Evolyutsiya sonatnoy formi" Muzichna Ukraina Kiyev.,1973